

KONSEPTUAL METAFORA NAZARYASI RAYMOND GIBS TALQINIDA

Askarova Maftuna To'liq qizi

1-bosqich tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Email: mrsmodest51@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17892940>

Annotatsiya: Ushbu maqolada konseptual metaforaning R. Gibbs tomonidan olib borgan mulohaza va tahlillari muhokama qilinadi. Konseptual metaforaning insonning jismoniy tajribalari bilan tafakkuri orasidagi aloqani namoyon qilishi borasida fikrlar yuritiladi va Gibbs tomonidan berilgan misollar orqali namoyon qilinadi.

Kalit so'zlar: konseptual metafora, konsept, kognitiv tilshunoslik, interdisiplinarlik, konseptosfera

Antropotsentrik paradigma doirasida tilga kognitiv yondashuv shakllanishi bir qancha yangi tushunchalar, terminlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. Xususan, konsept, konseptosfera, diskurs, diskurs tahlili, pragmatika kabilar shular jumlasidan. Asosiy e'tibor tilning voqelanishida inson omilining ta'siriga qarata boshlandi. Shuning uchun ham, interdisiplinarlik (fanlararo) xususiyati ustunlik qila boshladi. Zero, inson bilimlarining jamlanmasini tahlil qilish turli sohalarga doir ma'lumotlarni qamrab olishni talab qiladi.

Kognitiv tilshunoslik hamda stilistikaning o'zaro ta'siri natijasida, kognitiv stilistika ham rivoj topa boshladi. Dastlab, I. R. Galperin tomonidan stilistikaning mustaqil fan bo'lishi uchun qattiq qarshiliklar bo'lishiga qaramasdan, bir muncha asoslar taqdim qilinib, mustaqil fan sohasiga aylanish jarayoni boshlandi. Shundan keyin, kognitiv tilshunoslik ta'sirida stilistikaning ham kognitiv xususiyatlari tadqiq qilina boshlandi. Bu ikki sohaning o'zaro aloqasini o'zbek tilshunos olimasi D. Ashurova quyidagi xususiyatlar umumiyliigi bilan bog'laydi:

- til aloqa va bilish vositasi sifatida qaraladi;
- til dinamik va yaratuvchanlik bilan xarakterlanadi;
- antropotsentrizm prinsipi kognitiv lingvistika va stilistika asosida yotadi;
- ikkala fan ham konseptualizatsiya, kategoriyalash va dunyo haqidagi ma'lumotlarni talqin qilish jarayonlari bilan bog'liq;
- til hodisalarini talqin qilish lingvistik va ekstralingvistik (ensiklopedik) bilimlarning yaqin aloqasiga asoslanadi;
- interdisiplinar yondashuv – til hodisalarini kognitiv va stilistik talqin qilishning asosiy prinsipi.

Shunday qilib ushbu umumiy nazaryalarga asoslanib kognitiv stilistika ham o'z rivojini topib bormoqda. Shu bilan birga endilikda stilistik vositalar ham nafaqat tilning struktur xususiyatlari asosida talqin qilinadi, balki kognitiv xususiyatlarini ochib berish maqsadida lingvistik va ekstralingvistik omillarning ham hisobga olinishini talab qiladi.

Ushbu maqolada biz aynan ushbu stilistik vositalar orasidan eng ko'p qo'llaniluvchi hamda kognitiv jarayonlarning yaqqol aksi sifatida gavdalanuvchi kognitiv metafora masalasiga e'tibor qaratmoqchimiz.

Konsept va konseptual tuzilmalar kognitiv stilistika hamda lingvistika uchun asosiy tahlil markazi hisoblanadi. Bundan maqsad insonning tashqi sezgilari orqali qabul qilingan hamda ichki sezgilari orqali olingan bilim va tajribalarga tayangan holda konseptual tuzilmaning

asosiy xususiyatlarini aniqlashdir (Evans, 2019). Insonning tashqi sezgi organlari orqali qabul qilingan tajribalar jismoniy harakatlar bilan bog'liq holda ongda saqlanadi. Natijada konseptual tuzilmalar turli domenlarni o'zaro bog'lash, ya'ni mapping orqali tashkil topadi hamda insonning jismoniy tajribalari yoki aniq konseptlardan tashkil topgan murakkab tuzilmalarga ajralishi mumkin (Evans, Grin, 2006).

Mapping orqali yuzaga chiquvchi konseptual jarayonlardan biri bu konseptual metafora hisoblanadi. Koveksisning fikriga ko'ra, konseptual metafora "tajribaning ikki domeni o'rtasidagi tizimli mosliklar majmui" sifatida ta'riflanadi (2010, b.14). Bunday bog'lanishlardagi mosliklar mapping orqali amalga oshadi va u maqsad domeni bilan manba domenini bir-biriga moslaydi (Semino, Demjen, 2017). J. Lakofning ta'kidlashicha, metaforalar asbtrakt tushunchalarni aniq domenlar bilan ifodalash orqali anglash uchun ularni keng va ong osti darajasida qo'llaydilar (Lakof, 2002). aqliy faoliyat nuqtayi nazaridan qraganda, metaforik tafakkur xaritalash tizimlari orqali miyaning turli qismlarini o'zaro bog'laydi, bu orqali bir hududdagi mulohaza boshqa hududdagi mulohaza bilan bog'lanish imkonini beradi (Lakof, 2009).

Konseptual metafora rivojiga katta hissa qo'shgan asarlardan biri bu Raymond Gibsning "Metaphor Wars: Conceptual Metaphors in HUMAN Life" nomli asari bo'lib, unda muallif metafora nazaryasining lingvistik hamda psixologik asoslarini ko'rib chiqish va ushbu nazaryasi qarshi bildirilgan fikrlarni tahlil qilishga urinadi. Ushbu asar 7 qismdan tashkil topgan bo'lib, Gibs unda metaforaning tahlili, identifikatsiyasi va talqini bo'yicha murakkab bahslar yuritadi.

ushbu asarnng birinchi qismida muallif metadforalarning hayotimizda keng tarqalganligini adabiy hamda siyosiy matnlardan olingan misollar orqali isbotlaydi. Shu bilan birga insonning jismoniy tajribalariga asoslangan bilimlar murakkab va mavhum tuzilmalar bilan ham bog'lana olishini ta'kidlaydi.

Ushbu bobda ko'pgina qism konseptual metafora borasidaga hali aniq yakuniy qarorga kelinmagan olimlar fikrlarining mulohazasi hamda ularga bildirilgan fikrlar borasida boradi. Asosa, ushbu nazaryanign ishonchligi borasida bahslar yuritadi.

Gibs asarning ikkinchi bobida turli xil keng tarqalgan metaforalardan foydalandi, xususan, hayot-sayohat, muhabbat-birlashish, muhabbat-tabiiy kuch. Ushbu misollar orqali muallif metaforalarning xilma-xillik, psixologik universallik va tizimlilik xususiyatlarini batafsil tushintiradi.

Bundan tashqari, ushbu bobda ko'p ma'nolilik, maqollar, iboralar va diskursning konseptual metafora nuqtai nazaridan tahlil qilinishini ham bayon qilgan. Xulosa qismida esa Gibs konseptual metafora nazaryasi tahlili ijodkorlikni cheklamasligini, aksincha, yangi til birliklarining vujudga kelishi uchun asos vazifasini bajarishini ko'rsatib beradi. Chunki insondagi konseptual tizimni til birliklarining yolg'iz o'zi tushuntirib berolmaydi.

Uchunchi bobda Gibs konseptual metaforani tahlil qilishning bir qancha amaliy usullari va metafora bo'yicha tahlilchilarning tajribasi va kompyuter yordamidagi resurslarning qanchalik foydali bo'lishi haqida tushuncha beradi. Ushbu bobda kontekstual ma'nolar va lug'aviy ta'riflarni solishtirish orqali qaror qabul qilish jarayonni ancha osonlashtirishini ta'kidlaydi.

Raymon Gibs asarning to'rtinchi bobida til birliklaridan metaforani chiqarib olish jarayoni va metafora mexanizmlari haqidagi turli nazariy yondashuvlarni tahlil qiladi. U domenlararo

xaritalash va kategoriyalash ikki xil jarayon ekanini, ular o'zaro ta'sirlashuv motivatsiyasi va kognitiv tejamkorlik o'rtasidagi muvozanat natijasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham, metafora asosidagi xulosalar moslik va konvensionallashuv jarayonlariga tayanadi. Shuningdek, Gibbs konseptual metaforalar individual va sotsiomadaniy kontekstlar tomonidan shakllanishini qat'iy asoslaydi va ularning alohida mappinglar bilan talqin qilishini o'rinli bo'lishini ta'kidlaydi.

Beshinchi bobda ko'plab psixologik eksperimentlar taqdim qilinadi. Bunda Gibbs tomonidan oddiy so'zlochi metaforani sezgan paytidan boshlab uni tushunish jarayoni, tilda sodir bo'luvchi jarayonlargacha bo'lgan barcha bosqichlarni tasvirlaydi. Istak - ochlik metaforasiga asoslanib, insonning tana jarayoniga oid tajriba metaforik tafakkur bilan qanchalik yaqin bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu ma'noda Gibbs gavdaga asoslangan tajriba metaforalar va ularning verbal ifodasini faollashtirishini, biroq jarayon aks tomonga ham ishlashi, ya'ni verbal ifoda ham metaforalarni faollashtirib, tanada seziladigan holatlarga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Keyingi bobda Gibbs tomonidan metaforaning tadqiqotlari doirasini kengaytirib, muloqotning boshqa rejimlarini ham qamrab olishini ta'kidlaydi. Bu orqali metaforalar inson tafakkurini aks ettirishi va jismoniy tajribaga asoslangan tajribadan kelib chiqishini isbotlashga urinadi.

Yakuniy boda esa Gibbs konseptual metaforalar psixologik jihatdan haqiqiy ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun u jismoniy tajribaga asoslangan va konseptual mapping o'rtasidagi bog'liqlikni hamda inson tajribasining qanday tarzda konseptuallashtirilishini tushunishda konseptual metafora nazaryasi qanchalik ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak, Raymond Gibbs tomonidan berilgan konseptual metafora nazaryasi metaforalarning tilning turli janrlarida ham keng tarqalganligi ko'rsatiladi. Shuningdek, jismoniy tajribaga asoslangan bilimlar va kontekstual kuchlar tomonidan shakllantirilishi tushuntiriladi. Metaforani aniqlashning turli tahlilchilar tomonidan berilgan usullari taqdim qilinadi va duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar oldindan ko'rsatib beriladi. Bundan tashqari konseptual metafora nazaryasiga qarshi bildirilgan e'tirozlar va bahslarni muhokama qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Raymond Gibbs o'quvchini nazariy bahslar, tanish misollar, mustahkam empirik dalillar va uslubiy ko'rsatmalar orqali konseptual metafora nazariyasining keng qamrovli sayohatiga yetaklaydi. Uning asari Lakoff va Johnson tomonidan bundan qariyb qirq yil avval boshlangan metafora tadqiqotlari doirasini kengaytirishda davom etayotgan boy ilmiy tajribasining mahsulidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Evans, Vyvyan, 2019: *Cognitive linguistics: a complete guide*, 2nd edn., Edinburgh: Edinburgh University Press.
2. Evans, Vyvyan, & Melanie Green, 2006: *Cognitive Linguistics: An introduction*, Edingurgh: Edinburgh University Press.
3. Lakoff, George, 2014: "Mapping the brain's metaphor circuitry: metaphorical thought in everyday reason", *Frontiers in Human Neuroscience* 8, 1-14

[<http://doi.org/10.3389/fnhum.2014.00958>].

4. Lakoff, George, 2009: "The neural theory of metaphor" in Raymond Gibbs (ed.): *The Cambridge Handbook of Metaphor and Thought*, New York: Cambridge University Press, 17-38.
5. Lakoff, George, 2008: *Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind*, University of Chicago Press.
6. Lakoff, George, 2002: *Moral Politics: how liberals and conservatives think*, 2nd edn., Chicago: University of Chicago Press.
7. Lakoff, George, 1987: "Image metaphors", *Metaphor and Symbol* 2 (3), 219-222.
8. Lakoff, George, & Mark Johnson, 1980: "The metaphorical structure of the human conceptual system", *Cognitive Science* 4 (2), 195-208.0
9. Kövecses, Zoltan, 2017: "Conceptual metaphor theory" in Elena Semino & Zsófia Demjén (eds.): *The Routledge handbook of metaphor and language*, New York: Routledge, 31-45.

